Некоторые понятия в уголовном праве, в том числе состав преступления, основания ответственности и освобождения от наказания, осуждение, теоретические сведения, связанные с квалификацией соучастия, требуют от преподавателя разъяснения с высоким педагогическим мастерством. При последовательном изложении теоретических правил желательно обращать внимание на перенос внимания учащихся с одного на другой в рамках изучаемых предметов примерно каждые семь минут. Например, при обучении объективным сторонам преступления следует последовательно анализировать три элемента: общественно опасное деяние, общественно опасное последствие и причинную связь между общественно опасным деянием и общественно опасным последствием. В процессе их обучения теоретические основы всех трех элементов должны быть объяснены за семь минут. После этого рекомендуется перевести учащихся от изучения теоретических знаний к практической ситуации, предоставив реальный пример того, как взаимосвязаны три элемента. Затем все три элемента могут быть объяснены отдельно с точки зрения их специфических свойств.

Подкрепление теоретических вопросов примерами из реальной жизни всегда эффективно. Также следует помнить, что этот метод может привести к потере лекционного времени. Чтобы решить эту проблему, опытный преподаватель может оставить относительно простые для понимания концепции лекции для обсуждения на семинарских занятиях или оставить их в качестве заданий для самостоятельного изучения студентами. Для этого необходимо учитывать возможности, уровень интереса, навыки и квалификацию учащихся той или иной группы.

Особенная часть уголовного права ориентирована на изучение разных видов преступлений, а лекции организованы на основе знаний, умений и навыков, полученных студентами в предыдущей части. Нетрудно изучать отдельные виды преступности в устоявшихся группах. Общие теоретические знания позволяют быстро решать сложные задачи на теоретической основе. Поэтому в лекции можно будет использовать различные примеры интерактивных методов. В некоторых продвинутых группах также можно оставить квалификацию преступлений самим учащимся. В этом случае эффективен метод работы в малых группах. Преподаватель может эффективно использовать интерактивные методы, такие как вставки, кластеры, синквей, методы скарабея и графические органайзеры в лекционном занятии. Для этого педагог должен был хорошо преподавать теоретические основы уголовного права в первой части курса



## INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH BUGUNGI KUN TALABI

**Adizova Nilufar Quvondiq qizi**

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Telefon:+998(94) 023 99 96

Nilufaradizova5@gmail.com

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, har biridan o'z o'rnida foydalanilsa yuqori samara beradi. Interfaol metodlarning afzalligi talaba yoshlarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatadi. Ushbu maqolada interfaol metodlar, ularning turlari, interfaol metodlarning maqsadi va foydali jihatlari qisqacha keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metod, pedagogik mahorat, interfaol grafik organayzerlar, Interfaol ta'lim strategiyalari, erkin fikrlash, munozara, yuqori natija.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrning tasdig'i sifatida "Texnologik ta'lim"ni o'qitish jarayonida zamonaviy talablariga javob bera oladigan, xorijdagi oliy ta'lim muassasalarida keng miqyosda qo'llaniladigan innovatsion va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish va qo'llash bugungi ta'lim soxasining dolzarb muammolaridan deyish mumkin. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida ta'limni sifati va samaradorligiga erishish ko'p jihatdan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish va unda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash zarur. Uni qay darajada amalga oshirish esa biz pedagoglarning bilimi, kasbiy-metodik tayyorgarligi, tinimsiz izlanishi va yuksak pedagogik mahoratiga ega ekanligiga bog'liq.

Interfaol metodlar deganda- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiq lashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

### **Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:**

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va h.k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. **Interfaol grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq



jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarining tatbiqiy asoslari.- Toshkent: Fan, 2006.

2. Ro'zieva D.I., Usmonboeva M.H., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma.- Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.



## МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI МАКТАБ ТА`ЛИМИГА ТАЙЙORLASHNING USTUVOR VAZIFALARI

**Baxtiyorova Parvina Shuxrat qizi**  
Surxondaryo v. Termiz t. 11- DMTT  
tayyorlov guruh tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, bolalar, maktab ta'limi, ta'lim-tarbiya jarayoni, markazlar, tashkilot

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev *“Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi”* deya ta'kidlaydi.

Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomi maktabgacha ta'limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg'or xorij tajribalarini tadbiq qilish imkononi beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan,

1. “Ilk qadam” dasturini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi.

2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi.



Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika

markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)

3. San'at markazi (Rasm, applikasiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrof olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, til va nutq markazida bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola markazda o'zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan



shugʻullanish imkoniyatiga ega boʻladi.

Bolalarni oʻyin jarayonida tinglansa “Menga yashil rang kerak”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa kattakon”, “Meni mashinamga 10 ta odam sigʻadi” degan jummalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqotida qoʻshish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

Sanʼat markazida bolalarni kayfiyatini koʻtarish imkoni mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari qoʻllab-quvvatlanadi. Sanʼatning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan toʻliq taʼminlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda oʻrgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab boʻladi.

Syujetli-rolli oʻyinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon boʻlishi, oʻz mahoratini koʻrsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar boʻlib, oʻyin jarayonida bola ulardan foydalanishni oʻrganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega boʻladi. Oʻyinda oila aʼzolarining oʻzaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni oʻrganish) imkoni yaratiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida oʻtkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uygʻotadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati toʻgʻri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini oʻzlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uygʻotadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi maʼlumotlar bolalarning oʻz qoʻllari bilan urugʻlarni tuvaklarga sepish orqali unga suv qoʻyishi va urugʻ unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Yuqorida izohi keltirib oʻtilgan markazlar faoliyati bolani maktab taʼlimiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit vazifasini bajarib, shu oʻrinda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasini ilova qilib oʻtishni joiz deb bildik.

Oʻquv yili yakuniga yetgandan soʻng maktabga tayyorlov guruhi boʻyicha oʻtkazilgan monitoringa asosan amalga oshirilgan ishlarni kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash ishlari oʻtkaziladi va bu orqali MTTning keyingi oʻquv yiliga moʻljallangan ustuvor vazifalarini belgilaydi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab taʼlimiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol boʻlib ulgʻayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq boʻlib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga boʻlgan qiziqishlarini orttiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qarori.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.

3. Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qoʻyiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, roʻyxat raqami 3032.

4. “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hayʼat yigʻilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАТЕМАТИК ТАСАВВУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНIG NAZARIY ASOSLARI

**Bo'riyeva Nargiza Davronovna**

Surxondaryo v. Qiziriq tumani

15 DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, elementar matematika, rivojlanish, ta'lim tarbiya

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ta'lim tarbiya tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, u bolani sihat-salomatlikka, to'g'ri jismoniy rivojlanishiga, yuksak madaniyatga maktabgacha ta'lim tizimida beriladigan bilimlarni chuqur o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'limda jismoniy mashqlarning asosiy mazmuni badan tarbiya, harakatli o'yinlar va sport o'yinlari, sport mashqlari, oddiy turizmdir. Ma'lumki, bolalar jismoniy tarbiya mashqlari, o'yinlarni bajarganda 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 gacha sanash, yaqin, uzoq, baland, past, chamalash, doira, aylana, to'g'ri chiziq, to'g'ri turish, uchburchak, to'rtburchak, kabi so'zlarni eshitadi va so'zlaydi, bu so'zlar maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda ham ishlatiladi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida o'rgatiladigan elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish bo'yicha na'munaviy dasturda berilgan elementar matematik bilimlarni bolalarga o'rgatish jarayonini bilim va ko'nikmalarini samarali bo'lishini, bolalar ongida yanada mustahkam bo'lishini ta'minlashda, o'yinlarni bajarish davomida quyidagi elementar matematik tasavvurlarni: son, sanoq, to'plam haqida, miqdor, shakl, miqdorviy tasavvur, vaqt haqida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash hozirgi kunda dolzarb va ahamiyatga molik bo'lib, maktabgacha ta'limda fanlar aro aloqadorlik bolalarni u yoki bu fandan olgan bilimlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha umum metodik nazariy asoslari namunaviy dasturlari yaratilgan bo'lib, bu masala bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba'zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, “teng”, “katta”, “kichik”, “butun va bo'lak” kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni, o'lchov kattaliklari bilan son o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlay bilish ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko'z bilan hamda ichida sanashga o'rgatib boriladi. Ularning ko'z bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobiliyati rivojlanadi.

Bu yoshda aqliy qobiliyatni, mustaqil fikr yuritishni, analiz, sintez, taqqoslash kabi jihatlarni, muhokama qilish, xulosa chiqarish qobiliyatini, miqdorviy tasavvurni rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tayyorlov guruhining elementar matematik tasavvurini rivojlantirish bo'yicha dasturi bolalarning oldingi guruhlarda olgan bilimlarini umumlashtirish, bir tizimga keltirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi.



Maktabga tayyorlov guruhida matematika bo'yicha haftasiga 2 ta mashg'ulot, yil davomida 72 ta mashg'ulot o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarning davom etish muddati: birinchisi – 30 daqiqa, ikkinchisi – 20-25 daqiqa.

Har bir mashg'ulot tuzilishi uning mazmuni bilan aniqlanadi. U yangi materialni o'rganish, o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash, bolalarning egallagan bilimlarini tekshirishga xizmat qiladi. Tayyorlov guruhida o'tkaziladigan matematik mashg'ulotda didaktik ko'rsatma materiallaridan keng foydalanilishi xarakterlidir. Amaliy ishlar, ko'rgazma tashkil qilish



bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar ham namuna sifatida qaralishi mumkin. Pedagog – tarbiyachi ularga o'zida bo'lgan ko'rsatma-qo'llanmalarni hisobga olib tuzatishlar kiritishi mumkin.

Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limdagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri — bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir.

Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi. Matematik masalalarni yechish jarayoni o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi, matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Oilada ota-ona bo'lsa, maktabgacha ta'limda albatta tarbiyachi-pedagog bo'ladi.

Shuning uchun har bir pedagog bolaga matematik tasavvurlarni shakllantirar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari (interfaol metodlar, individual yondashish, mustaqil shig'ullanishga o'rgatis va hk) hamda milliy istiqlol g'oyalari bilan qurollangan bo'lishlari kerak. Nazariy jihatdan to'la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bugungi kunda ta'lim jarayoniga qo'llash eng dolzarb masalaga aylangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.U.Bekboeva, U.S.Aliyeva Elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish bo'yicha ta'lim mazmuni. “Maktabgacha ta'lim ” jurnali №12, Toshkent 2000 y.
2. N.U.Bekboeva, Z.I.Ibrohimova, H.I.Qosimova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.
3. M.E.Jumayev “Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent. Ilm ziyo. 2010 yil.



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА НУТҚ О'СТИРИШ MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO'LLASH

**Choriyeva Nigora Cho'tboyevna**  
Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani  
21-DMTT o'rta guruh tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish, mashg'ulotlarda interfaol usullarni qo'llashda faol o'qitish usullaridan, o'yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, nutq o'stirish, mashg'ulot, innovatsiya, texnologiya, interfaol usullar

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda ta'lim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Tarbiyachi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan ta'lim jarayonida shaxs asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun barkamol avlodni voyaga yetkazishda zamonaviy o'qitish metodlari - interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar barkamol avlodni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutq o'stirish mashg'ulotlari innovatsion texnologiyalardan, faol o'qitish usullaridan, o'yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi.



Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolani faollashtiradigan, o'zi va tarbiyalanuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi, Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» atamalarini qatoridan «innovatsion texnologiyalar», «pedagogik innovatsiyalar» atamasi mustahkam o'rin olmoqda.

«**Innovatsiya**» inglizcha «innovation» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning tarjimasini «yangilikni kiritaman, tadbiriq etaman, o'zgartiraman» degan ma'nolarni bildiradi. Demak an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangilik asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir.

«**Texnologiya**» – yunoncha «techne» so'zidan olingan bo'lib, mahorat, san'at, «logos» - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin: faoliyat yo'nalishiga ko'ra (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi), kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra lokal, modulli, tizimli, kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan). Innovatsiyalar odatda bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishga olib keladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar keng qo'llanila boshlandi. Bu esa maktabgacha ta'lim tarbiyachisining tayyorgarligini ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. O'quv faoliyatini rejalashtirish, uni tashkil etish



tarbiyachilar uchun nihoyatda zarur. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturida respublika ta'lim tizimini texnologiyalashtirish zarurligi ta'kidlandi. O'quv–tarbiya jarayoni pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi zaruriyat darajasida qayd etildi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo mashg'ulot rejasi va uni o'tkazish xaritasini aniq ishlab chiqish zarur. Bunda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash nihoyatda muhim sanaladi. Metod tanlashda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni ko'proq qaratish o'quv faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalarni mashg'ulot jarayonida qo'llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tarbiyalanuvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan tushuncha, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham tarbiyachi, ham bolaning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Tarbiyachi va bolaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan. Bunda bolalarning bilim saviyasi, guruh характери, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar. Bular barchasi tarbiyachining mahorati va bolaning faolligiga bog'liq.

Bundan tashqari o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda tarbiyachi mashg'ulot mavzusining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, o'quv vositalarini eng asosiysi, bolaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, bolani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, faol o'qitish usullarni qo'llab mashg'ulot o'tilganda guruhda o'zlashtirmaydigan bola qolmaydi. Deyarli barcha bolalar mashg'ulot jarayoniga jalb etilib, ularning mashg'ulotga qiziqishlari ortadi. Bolalarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o'rganishlariga imkon yaratiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: 2009
2. “Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish”, metodik qo'llanma, Toshkent, 2004 yil.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T., 2010 y
4. Ibragimov X. Pedagogika T; «Fan va texnologiya» 2008 yil.
5. Kamoldinov M., Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari, T., 2010 yil.



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРНИ ТАСВИРИЙ FAOLIYAT MASHG’ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

**Hamroyeva Nasiba Shafaatovna**

Surxondaryo v. Oltinsoy t. 11 DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish fikrlash qobiliyatini, ko’rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyatga o’rgatishda rasm, qurish materiallari bo’yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlari haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san’at asarlari.

Ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim bosqichi eng muhim bo’g’inlardan biri hisoblanadi. Afsuski, bizda yillar davomida ushbu ta’lim bosqichini isloh qilish, maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrovni oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini zamon talablariga moslashtirish masalasiga kam e’tibor qaratildi. 2017 yil 30 sentabrdagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish to’g’risida” Prezident Qaroridan keyin ta’lim tizimining quyi bo’g’iniga e’tibor kuchaydi. Maktabgacha ta’limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jixatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o’qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o’zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruxiy sog’ligini ta’minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san’at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to’g’ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Tasviriy san’atning o’ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo’la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o’rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo’lishi, buning uchun muntazam ravishda o’z ustida ishlashi, o’zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko’tarishi, ilg’or tajribalarga tayanishi kerak.



Maktabgacha tarbiya muassalarida rasm chizishga o’rgatish 3 yoshdan boshlanadi. Bu davrdabolalarnitasviriy faoliyatgatayyorlashdavri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushlab va qog’oz ustida yuritishga o’rganadi. Lekin bu jarayonda rivojlanmaydi, bola qalamni to’g’ri ushlabni bilmaydi, tarbiyachi asta sekin to’g’ri ushlabga odatlantiradi, bolani bajarayotganligini emas balki, qalamning harakatini uning uchi bilan qog’oz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan to’g’ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog’oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqalar asta sekin murakkablashadi.

Bu vaqtda bola qog’oz ustiga tushirilgan turli xil

izlarni ko’rib xursand bo’ladi. Shuning uchun bu davr «Ala - buji» davr deyiladi. Bu davr bolada tasviriy faoliyatini vujudga keltirishga ta’sir ko’rsatadi. Bu guruxda maktabgacha ta’lim-tarbiya dasturi guruh mashg’ulotlarni talab qilmasada, agar bolalar xoxlashsa ularni stol atrofiga o’tirib rasm chizdirishga imkon yaratish mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg’ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san’at asarlari bilan rasmga qarab xikoya qilish, maktabda esa tasviriy san’atning turlari rang tasvir, grafik, xaykaltaroshlik va dekorativ san’at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg’ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish yasash mashg’ulotlari hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida keltirilgan mashg’ulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang’ich sinflarda ta’lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg’ulotlari bilan



uzviy ravishda olib boriladi. Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida, qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo'lini yengil, erkin bir tekisdagi xarakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proportsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakatlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu mashg'ulotlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi, kata kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiynchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatleri ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, proportsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan xis-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o'sishida muxim o'rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash xisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istiroxat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik xis-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mexnatiga to'g'ri baho berish, Vatanga nisbatan muxabbat kabi sifatleri tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana xam chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko'rganda quvonadigan qilib yaratish - bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani xal etishda, uning asosiy va muhim xal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda xam rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan xam tayyorlanib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yusupova P. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”. T.: O'qituvchi, 1993.
2. Xasanboyeva O.U. va boshq. “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”. T.: Ilm ziyo, 2006.
3. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T.: Tafakkur bo'stoni, 2013



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASHGA O‘RGATISH  
BO‘YICHA TAVSIYALAR**

**Munsizbayeva Dina Amandikovna**  
**Almatova Aliya Jalilovna**  
**Yedilova Jansaya Kenje qizi**  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholashga o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar berilgan bo‘lib, u boshlang‘ich ta‘lim darslarida qo‘llashga tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro ilmiy-tadqiqot, baholash, impuls-plakat, tafakkur, mantiq...

Ma‘lumki, XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxassislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma‘lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopedialar, sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma‘lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma‘lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi planga tushib qoldi.

**O‘quvchilarimizning xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etishlari uchun maktabda egallagan nazariy bilimlarini hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim.**

- ta‘lim sifatini xolisona monitoring qilish imkonini beradigan miliy baholash tizimini yaratish;
- ta‘lim sifatiga ta‘sir qiluvchi moddiy-texnik bazani shakllantirish;
- xalqaro ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
- xalqaro tadqiqotlar asosida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va o‘quv adabiyotlarni yaratish;
- xalqaro tadqiqotlar yo‘nalishlari doirasida savollar miliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlarini integrasiyalash;
- xalqaro tadqiqotlarga asoslangan holda tegishli fanlardan o‘qitishning ilg‘or shakllari, metodlari va texnologiyalarini takomillashtirish hamda o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

PISA – o‘quvchilarning o‘qish (matnni tushunish), matematik va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, o‘quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga mo‘ljallangan.

**“Impuls – plakat” usuli. Ta’rifi:** Har bir ishtirokchi uchun vatman varaqlari va markerlar kerak bo‘ladi.

1. Stollarning ustiga oxirigacha yetkazilmagan fikrlar yozilgan plakatlar qo‘yilgan: «Ushbu mavzuda meni hammasidan ko‘proq ..... qiziqtiradi», «Men shuni aniqlashtirmoqchi edimki, .....», «Men orttirgan bilimlarimni .... qo‘llayman», «Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida men.... erishdim», «Men ..... to‘g‘risida ko‘proq bilib olmoqchi edim», «Men uchun ..... murakkab bo‘ldi».

2. Iloji bo‘lsa, mashq jarayonida xotirjam, past ovozda musiqa yangrab tursin.

3. Ishtirokchilarga barcha plakatlarni aylanib va ko‘rib chiqib, boshlab qo‘yilgan fikrlar ustida o‘ylab ko‘rish va shu plakatlarining o‘zida davom ettirib oxirigacha yetkazish taklif etiladi.

4. Taxminan 15 daqiqadan so‘ng plakatlar ilib qo‘yiladi. Fikrlar eshittirib o‘qiladi, kerak bo‘lsa aniqlashtiruvchi savollar beriladi. Ishtirokchilar o‘z fikrlarining ostiga ismlarini yozish yoki anonim bo‘lib qolishni o‘zlari hal qiladilar.

**Foydalanish doiralari:** tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda, o‘quvchilarning bilimlari, qiziqishlarini tekshirish va aniqlash uchun.

**Afzalliklari:** Anonimlik o‘quvchilar boshqa vaziyatda sukut saqlashni afzal ko‘rib aytmagan fikrlarini bayon etishga yordam beradi. Bu mashqda bayon etilgan umidlar va istaklar o‘qituvchiga kelgusida mashg‘ulotlarni rejalashtirish va o‘tkazish vaqtida o‘z harakatlarini to‘g‘rilashga imkon beradi.

**Qiyinchiliklari:** Agar o‘quvchilardan ularning qiziqishlari va qiyinchiliklari to‘g‘risida so‘rab, lekin kelgusida bu ma‘lumotlarni e‘tiborga olmasangiz, ular o‘zlarini qandaydir so‘roq qilingan,



biroq jiddiy qabul qilinmagan odamlardek sezishlari mumkin.

«**Blok (to'siq) dars» usuli.** Bu usul A. P. Guzik (Odessa) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib bunda har bir bob, bo'lim tarkibiy qismlarga ajratilib: ma'ruza, seminar, laboratoriya ishi, ijodiy ish, amaliy mashg'ulot, sayohat, kecha, konferensiya va boshqalarga ajratib o'tiladi. Bu usul o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, izlanishga, axborot to'plashga, ulardan foydalanishga undaydi, hayot o'z o'rinlarini topishga katta yordam beradi.

“**Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri” usuli.** *Ta'rif:* Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar.

*Foydalanish doiralari:* Uy ishini tekshirish vaqtida, tabiiy va aniq fanlarda mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

*Afzalliklari:* Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

*Qiyinchiliklari:* Materialni o'zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. O'qituvchiga fikrlar aniqligi va to'g'riligini kuzatish, mashqni o'tkazish uchun vaqtni mo'ljallab olish qiyin, chunki o'quvchilarda ko'pincha fikrlarni aniq ifodalash ko'nikmasi mavjud bo'lmaydi.

Xullas, hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma'lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda “kosa tagidagi nimkosa”ni ko'ra olish kompetensiyasi birinchi o'ringa ko'tarilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Gaffarova T. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, 2011
2. Internet saytlari. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
3. Ziyonet .uz, - kitob.uz, - multimediya .uz



**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING O'QUV-BILUV FAOLIYATINI LOYIHALASH.**

**Nazarov Tohir Toshpo'lotovich**

BuxDPI Harbiy ta'lim fakulteti  
dotsenti. Tel. (94) 540-74-00.

nazarovtohir910@gmail.com

**Ibragimov Sodiq Izzatovich**

BuxDPI Harbiy ta'lim fakulteti  
3-bosqich talabasi.

Tel. (88) 304-33-83.

ibragimovsodiq007@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqola “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talaba-larining o'quv jarayonlardagi faoliyat yo'nalishlarini takomillashtirish orqali ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayonida ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.*

***Tayanch tushunchalar:** tadqiqot, pedagog, mahorat, loyiha, muammo tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis, loyihalash.*

Ta'lim-tarbiya tizimi, harbiylar hayotiga o'z-o'zini anglashda, xalqning, millatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida bosib olgan murakkab yo'lga, ajdodlarimizning ma'naviy-madaniy, ilmiy, diniy, falsafiy, ma'rifiy merosiga qarashlari va g'oyalariga har bir kishining bevosita bog'liqligini chuqur va atroflicha his qilishlariga ko'maklashishi lozim. Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, asosiy jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. O'quv loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. Talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va oxiri mavjud bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish kerak bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali usullari, vositalari ko'p topiladi. Bu yerda ta'lim texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda ofitser-o'qituvchiga yordamga keladi.

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarining o'quv jarayonlardagi faoliyatini loyihalashning mazmun-mohiyatini zamonaviy sharoitda tadqiq qilish alohida tadqiqot predmeti sifatida tanlanmaganini ko'rsatish mumkin.

Loyihaviy faoliyat yangilanish darajasiga oiddir, chunki u borliqni o'zgartiradi, tegishli texnologiya negizida quriladiki, uni o'zgartirish, o'zlashtirish va takomillashtirish mumkin. Loyihalash asoslarini o'zlashtirish dolzarb, chunki, birinchidan, mazkur texnologiya ta'lim tizimini tashkil qilishning barcha bosqichlarida keng qo'llanishga ega. Ikkinchidan, ijtimoiy madaniyat loyihalash mantig'i va texnologiyasini bilish, tahliliy, tashkiliy boshqarish vazifalarini samarali amalga oshirishga imkon yaratadi. Uchinchidan, loyihaviy texnologiyalar mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Talabalarga ta'lim va tarbiya berishning muvaffaqiyatliligi va natijaga egaligi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir. Yangi ta'lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi.

Loyihaviy faoliyatning tarkibiy asoslari quyidagilardir:

- 1) muammo tahlili;
- 2) maqsadning qo'yilishi;
- 3) unga erishish uchun vosita tanlash;
- 4) axborotni izlash va qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish;
- 6) olingan natijalarni baholash va xulosalar.



Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta’lim uslublaridan biri bo‘lib, mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmasini hosil qilishga yo‘naltiriladi (muammoning qo‘yish, axborotlarni to‘plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) va ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta’lim jarayonida olingan bilimlarni yaxlid birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi.

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi subektlarining loyihaviy faoliyatdan kutilayotgan maqsad ta’lim oluvchilar tomonidan turli o‘quv fanlarini o‘rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko‘nikmalarni tushunish va qo‘llay olishdan iboratdir.

Ofitser-o‘qituvchining loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejalashtirishga o‘rgatish (ofitser-o‘qituvchi maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo‘yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);

- axborot materiallarni yig‘ish va uni qayta ishlash ko‘nikmasini shakllantirish (ofitser-o‘qituvchi kerakli axborotni tanlay olishi va undan to‘g‘ri foydalana olishi lozim);

- tahlil qila olish ko‘nikmasi (ijodiy va tanqidiy tafakkur);

- yozma hisobot tuza olish ko‘nikmasi (ish rejasini tuza olishi, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar (bibliografiya) haqida tushunchaga ega bo‘lish);

- ishga ijobiy munosabatda bo‘lishni shakllantirish (ofitser-o‘qituvchi tashabbus ko‘rsatishi, ishni belgilangan ish rejasi va tartibi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarishga).

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim jarayonining loyihasi loyihalashning mahsulidan iborat. Loyihalash modellashdan tuzish maqsadi bo‘yicha farqlanadi. Loyiha loyihalalanayotgan ob‘ektni borliqqa mujassamlashtirishdan iborat; model - ob‘ektni tadqiq qilish uchun, dastlab model, so‘ngra uning asosida loyiha ishlab chiqilsa, modellash loyihalashning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin.

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarining loyiha faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil qilish bir qator talablarni bajarishga bog‘liq. Sohalilikni talab etish, ya’ni, loyihalash predmetni himoyalanganligini tasvirlash, ma’lum sohalar bilan bog‘lash, degan so‘zdir. Ta’lim tizimining ishlashi va rivojlanishi nafaqat psixologik-pedagogik muammolarni, balkim, falsafiy, madaniyatshunoslik, huqu-qiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, fiziologik va boshqa muammolarni ham e’tiborga olishni talab etadi, pedagogik loyihalash fanlarning keng ko‘lamini yorituvchi fanlararo mazmundagi bilimlar bilan ishlay olishga aloqador. Agar biz loyihalashtirish natijasida ta’limning yangi modelini olishni istasak, oldin u qamrab oluvchi barcha ijtimoiy-ta’limiy sohalarini tahlil qilish zarur. Loyihaviy qarash doirasiga modelning harakat muhitidagi ta’limning ijtimoiy vaziyati, bir butun ta’lim mazmuni, talabalarining taqdiri kirgan bo‘ladi; barcha unga qo‘shimcha ta’lim shakllari va qadamlari, qonunchilik me’yorlari va shu kabilar kiradi.

Shunday qilib, Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishida loyihalashning mazmuni, umumiy maqsadga erishishi asosi sifatida, shaxsni tarbiyalash maqsadi va vazifasini o‘z ichiga oladi, ularning o‘zgarasligini saqlaydi, mazmuni, uslublari va shakllarini o‘zgaruvchan qiladi. Maqsad va vazifalar boshlang‘ich holda aniq berilgan hisoblanadi. Ofitser-o‘qituvchi bu holda shaxsga ta’sir etishning shunday usullarini izlaydiki, ular quyilgan maqsadga muvofiq ravishda uni rivojlantirishga yordam beradi. O‘zgaruvchan tuzilmalar tashkil etuvchi qismlari sifatida tarbiyalanuvchi va pedagogning shaxsiy imkoniyatlarini oladi. Bu umumiy maqsadga erishish yo‘lida fikrlash mantig‘i tizim, jarayon, vaziyat ishtirokchilarining aniq imkoniyatlaridan kelib chiqishlari, so‘ng maqsad, tamoyil, mazmun, uslublar, vositalar va shakllarni aniqlashdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.
2. Новиков Д.А. Развитие патриотических чувств у студентов неязыковых вузов//Ж.: «Языкознание и литературоведение». М.;2019 №5,-S.29-34.
3. Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Dis. ...ped. fan. dokt. // – T.; 1998. – 288 b.
4. Yusupova M.A. Loyiha texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish- T:Universitet, 2020.-17 b.



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА MASHG’ULOTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O’YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Safarova Yulduz Nortojiyevna**

Surxondaryo v. Bandixon t. 3 -DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlar jarayonida samaradorlikni oshirishda o’yinli texnologiyalarning o’rni asoslab berilgan.

**Kalit soʻzlar:** maktabgacha ta’lim, texnologiya, o’yin, o’yinli texnologiyalar, mashg’ulot, tarbiyachi faoliyati, tashkilotchilik, samarali natija.

Bugungi kunda ta’lim tizimida, jumladan maktabgacha ta’lim tizimida ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo’llarini amaliyotchi tarbiyachi va o’qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Ta’lim texnologiyasi tushunchasi ta’lim maqsadiga erishish quroli, ya’ni oldindan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma- bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta’lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.



Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. O’yin texnologiyasi ham o’yin metodidan o’zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo’lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o’zaro bog’liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Pedagogik ijrochilik o’yinlarini bola uch yoshdan boshlab o’zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o’rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o’zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda bolalar o’yin faoliyatini o’zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta’lim tizimida qo’llaniladigan pedagogik o’yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko’taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o’zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o’ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo’qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi.
6. Bolalar shaxsi strukturasi ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag’rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o’yinlar.

Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi pedagogik o’yinlarni o’quv tarbiya jarayonida qo’llash quyidagi o’ziga xos xarakterga ega bo’ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o’yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo’ladi. Ikkinchidan, o’yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g’ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog’ozlar, konstruktor-mexanik majmualarida turli rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta’minlash maqsadida ularni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig’ida



sifatli bajarilishini ta'minlash darkor. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv ob'ektdan faol sub'ektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.

2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.

3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.

4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.

5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.

6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.

Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofda olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy ta'limdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, o'yinlar voqelikni bola tomonidan faol ravishda o'rganib, bilib olish vositasi hisoblanadi. Bola o'yin turib dunyoni biladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: "Sharq", 1998

2. Abduqodirov A.A. Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Qarshi: Nasaf, 2016.

3. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash Maktabgacha ta'lim. – T., 2016.

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## BOLALAR TARBIYASIDA OILANING O'RNI

**Tursunova Mohira Karimjonovna**

Namangan tuman 13 - DMTT tarbiyachisi.

Tel: 94-150- 62 – 14

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bola tarbiyasida oilaning aloxida mas'uliyati naqadar muhimligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, axloqiy tarbiya, ta'lim, tarbiya, ota-ona .

Farzand — oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Bolalarning sharofati bilan hayot yanada shirin, o'lim esa u qadar dahshat solmaydigandek tuyiladi,— degan edi ingliz filosofi Frensis Bekon.

Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo'lib, ota-onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalariga erishavermaydilar.

Hayotining birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning ta'lim, tarbiyasi bilan shug'ullanish oilaning asosiy vazifasidir.

Navoiy tarbiya usuli sifatida na'muna ko'rsatishga alohida e'tibor berar va kishilarni, ayniqsa yoshlarni yaxshi kishilardan o'rganishga, ulardan ibrat olishga, ularning davrasida bo'lish, ular bilan tez-tez suhbatlashishga chaqirar edi. U bola tarbiyasida ota-onalarning ibrati to'g'risida shunday yozadi:

Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,  
Ul odat ila kasbi saodat kilg'ay,  
Har kimki atog'a ko'p rivoyat kilg'ay,  
O'g'lidan anga bu shi siroyat qilg'ay.

Madaniy va ma'naviy merosimiz bo'lgan Hadisda tarbiya, axloq-odob, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindoshlik, mehr-oqibat, adolat, insof-tavfiq bilan bir qatorda ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari ham o'z ifodasini topgan. Masalan, Hadisda «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar», deyilgan.

Agar oila ma'nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur-halovati bilan mashg'ul bo'lsa, agar oilada rahmsizlik va xudbinlik hukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. SHuning uchun ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak. Ota-onalarning yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

Oilada kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak.

Ota-ona oldidagi mas'uliyatning naqadar muhimligi shundan iboratki, ular bolaning har biri qadamini, xar bir hatti-harakatini zimdan kuzatib boradilar. Bolalar har qanday janjalni, yomon noo'rin so'zni uzoq vaqt eslab yuradilar, o'rni kelganda, vaziyat bo'lpanda amalda qo'llashga harakat qiladilar.

«Qush uyasida kurganini qiladi», deydi xalqimiz. Ayniqsa, bolaning izzat nafsiga tegmaslik, uni kamsitib gapirmaslik, xullas, ota-onaning o'zi madaniyatsizlik, odobsizlik qilmasliklari maqsadga muvofiqdir.

Ota-onaning jamiyatda tutgan o'rni, nufuzi farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bu narsa mansab bilan belgilanmaydi. Eng yaxshi obro' va e'tibor halol mehnatdir. Halol mehnat bilan jamiyatda orttirilgan obro' oilada farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Farzand ham ota-onalaridek bo'lishga intiladi. Mehmondo'st oilada o'sgan farzandlar ham mehmondo'st bo'ladilar.

Ota-onalarini xor-zor qiladigan, dillarini og'ritadigan nomard farzandlar ham uchraydi. Ular nima qilayotganlarini o'ylab ham ko'rmaydilar. Qadimdan bir naql bor: ota-ona o'nta bolani boqadi-yu, o'nta nomard bola ota-onani boqa olmaydi. Bu naqlning mazmuni juda chuqur. Uni har bir farzand yodidan chiqarmasligi kerak. O'sib-unayotgan farzandlar A. Navoiyning m'ana bu nasihatini ham hamisha yodda saqlashlari lozim:

Boshni fido qilg'il ato boshig'a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig'a,  
Tun-kuningga aylagali nurposh,  
Birsin oy angla, birisin quyosh.



Ota-onalarning shakllanib, kamol topib borayotgan shaxsga ko'rsatadigan ta'sir kuchi juda katta. Ularning bolaga ta'sir etishining asosi ularning bolaga nisbatan beg'araz muhabbati, uning haqida talabchanlik bilan qo'shib olib boradigan g'amxo'rligidir. Muhabbat har qanday yaxshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir.

Hamma gap ota-onalik mehrining namoyon bo'lish darajasini his etishda, uni talabchanlik va bola shaxsini hurmat qilishi bilan qo'shib olib borishdadir.

Bola bu muhabbat va g'amxo'rlikka ota-onalariga nisbatan katta mehribonlik va muhabbat, ularning ustunligi va obro'yini tan olish, ular yo'lidan borishga, har narsada ularga taqlid qilishga intilish bilan javob beradi. Oila ta'sirining kuchi bolaning tarbiyaviy ta'sirlarga moyilligi, taqlidchanligi bilan belgilanadi.

Ayniqsa kichik yoshli bolalarni tarbiyalashda oilaning roli kattadir. Bolalar ota-ona rahbarligida tevarak-atrof, hayot to'g'risidagi dastlabki tasavvurlarni egallab oladilar.

Oila bolani tarbiyasiga ta'sir etadi, uni tevarak-atrofdagi hayotga qo'shadi.

Bolani yoshligidan boshlab oilaviy odob-axloq qoidalariga odatlantirish, yaxshi xulq-atvorli bo'lishga o'rgatish ota-ona uchun ham qarz, ham farzdir. Ular bolalarda yoshligidan boshlab kishilarga mehr-muhabbatli, izzat-hurmatda bo'lish, insonning qadriga yetish va hurmat qilish kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalab borishlari zarur.

Oqil ota-onalar oilada farzand dunyoga kelishi bilan uning tarbiyasini buvisi, buvasi yoki jamoat tarbiya muassasalariga topshirmay, bu mas'uliyatli vazifa bilan o'zlari jiddiy shug'ullanadilar. Uz farzandlarini o'zi yashab turgan jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalashga intiladilar. Uzbek oilalarida bolalarni jamiyatning munosib farzandlari qilib tarbiyalash bo'yicha ijobiy tajribalar to'plangan. Lekin kichkintoylar tarbiyasida jiddiy xatolarga yo'l qo'yadigan oilalar ham uchray turadi. Bu esa bolalarning kelgusidagi kamolotiga salbiy ta'sir etadi va ularni qayta tarbiya-lashdek murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday xatolarning asosiy sababi ota-onalar pedagogik madaniyatining yetarli darajada bo'lmasligidir. Uz bolasini yaxshi kishi, yetuk fuqaro qilib tarbiyalash istagining o'zi yetarli emas. Buni uddalay bilish kerak.

Ota-onalar atoqli pedagoglardan biri aytgan: «Bolalarni tarbiyalash — hayotimizning muhim sohasi... To'g'ri tarbiya — bizning baxtli kelajagimiz, yomon tarbiya bizning kelajakdagi qayg'u-hasratimiz, ko'z yoshlarimiz boshqa kishilar oldidagi, butun jamiyat oldidagi, butun mamlakat oldidagi aybimizdir», degan fikrlarni tushunishlari kerak. O'z bolasini tarbiyalashni shaxsiy ish deb qarab bo'lmaydi, balki bu jamiyat oldidagi fuqarolik burchini bajarishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. P. Yusupova «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» Toshkent-1993.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.
3. G.Jalilova «Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy usullardan foydalanish» Toshkent – 2004 yil.



## BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

**Umarova Zilola Ibodillaevna.**

Yashnobod tumani 206-maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish haqida fikrlar yuritilgan. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida interfaol ta‘limni mohiyati, darsda barcha o‘quvchilar bilim jarayoniga jalb qilinishi, o‘quvchining muayyan nazariy bilimlarini puxta egallashi, har bir o‘quvchining faoll ishtiroki, o‘quvchining erkin fikrlashi hamda layoqatini shakllanishi va mantiqiy tafakkurini rivojlanishi haqida tahlil qilingan.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** interfaol metodlar, ta‘lim jarayoni, tafakkur, qiziqish, interfaol texnologiyalar, rivojlantirish, kafolotlanganlik natijasi, faollik, samaradorlikka erishish, metodlar.*

Interfaol so‘zi o‘zi nimani anglatadi? Bu so‘z bizga “**interact**” ingliz so‘zidan kelgan bo‘lib inter – o‘zaro, ikki taraflama; act – ish (harakat) qilmoq degan ma‘nolarni beradi. Interfaol – kim (inson) yoki nima (kompyuter) bilandir o‘zaro harakat qilish, yoki muloqotda bo‘la olishni anglatadi. Bundan kelib chiqib, interfaol ta‘lim berish – bu avvalambor o‘quvchi va o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqa (harakat) vujudga keladigan muloqotli dars berish jarayonidir.

Interfaol ta‘limni mohiyati shundaki, darsda barcha o‘quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadilar, ularda bilgan narsalari buyicha tushunish va harakat qilish imkoniyati bo‘ladi.

O‘quvchilarning bilim olish jarayonida birgalikdagi faoliyati, o‘quv materialini o‘zlashtirishi, har bir ishtirokchi o‘zini alohida xissasini qo‘shishini, bilim va ma‘lumotlar, g‘oyalar almashuvi ro‘y berayotganini anglatadi. Bularning barchasi hayrixohlik va o‘zaro yordam muhitida amalga oshadi. Bunda o‘quvchi nafaqat yangi bilimlar oladi, balkim idrok etishni rivojlantiradi, hamkorlik yuzaga keladi.

Zamonaviy o‘qituvchi bilim va ma‘lumot uzatuvchisi emas, balki o‘quvchi bilan hamkorlik qiluvchi o‘quv jarayonining tashkilotchisi. U bolalar bilan hamkorlikda fanni o‘rganadi, shu bilan birga bolaga dunyo manzarasining yaxlitligini anglash yo‘llarini o‘rgatadi. Dars nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirish vositasi hamdir

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablar pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o‘z aksini topgan. Bular: “Aqliy Hujum”, “Yalpi fikriy Hujum”, “Qarorlar shajarasi”, “Zig-zag”, “6x6x6”, “Qora quti”, “Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim”, “Klaster”, “Shlyapa”, “Panaroma” va xokozo.

Ta‘lim jarayoniga bu metodlarni qo‘llash:

- o‘quvchining muayyan nazariy bilimlar puxta o‘zlashtirish;
- vaqtning tejalishi;
- har bir o‘quvchining faollikka undalishi;
- o‘quvchining erkin fikrlash layoqatini shakllanishi;
- o‘quvchida o‘zgalarning fikrini tinglay olish ko‘nikmasining hosil bo‘lishi;
- o‘quvchining o‘z fikrini himoya qila olishi;
- o‘quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko‘nikmasini shakllanishiga olib kelashi.

Ta‘limning kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko‘rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo‘lsa, o‘quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta‘limning zamonaviy texnik vositalari va ilg‘or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo‘lib, ikkinchi talqin, ta‘lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta‘minlaydi.

O‘quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

- boshlang‘ich ta‘lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;
- boshlang‘ich ta‘lim tabiiy fan darslari pedagog xodimlari o‘rtasida interfaol metodlar



mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o‘quv seminarlarini tashkil etish;

- pedagogik texnologiya asoslarini puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
- boshlang‘ich ta‘lim darslarida ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondoshuv hissini tarbiyalash;
- boshlang‘ich ta‘lim darslarida o‘qituvchilarning texnologik yondoshuv asosida tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish;
- boshlang‘ich ta‘lim darslari o‘qituvchilari tomonidan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish;
- boshlang‘ich ta‘lim darslari o‘qituvchilarining texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish;
- boshlang‘ich ta‘lim darslarining samaradorligini ta‘minlash

Boshlang‘ich ta‘lim darslari o‘qituvchilari o‘rtasida interfaol metodlar va ularning mohiyati xususidagi nazariy ma‘lumotlarni targ‘ib etish muvaffaqiyatini pedagogik jamoa, shuningdek, individual pedagog xodimlarda ularni o‘rganishga nisbatan ehtiyoj, qiziqishning yuzaga kelishini belgilaydi. Yuzaga kelgan ehtiyoj hamda qiziqish ularni qondirish imkonini beruvchi amaliy faoliyatni tashkil etishga nisbatan qaror toptiradi.

Shunday qilib ta‘lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llashda o‘qituvchi ta‘lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo‘lib, bunda boshqaruv maqsadi ta‘limning ob‘ekti va sub‘ekti sifatida o‘quvchiga yo‘naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta‘lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi Innovasiyasi va integrasiyasi. T.: G‘.G‘ulom 2013 y
2. Shodmonova Sh.S., Mirsagatova N.S., Ibragimova G.N., Mirsolieva M.T. Pedagogik texnologiyalar (metodik qo‘llanma). –T.: “Fan va texnologiya”, 2011 y. 140 b. 24-33 betlar.
3. G‘oziev E. "Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta‘siri". Ma‘rifat gazetasi. 2000 yil. 14-bet.



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTELLEKTUAL RIVOJLANGAN AVLODNI  
TARBIYALASH USULLARI**

**Xudoyberdiyeva Dildora Sirojevna  
Xoliqova Manzura Eshpo‘latovna**  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari


**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich ta‘limda intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash usullari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** intellektual, xazina, avtofokus, diagramma, shohsupa, iqtidor...

Mamlakatimizda demokratik prinsiplar ustuvor bo‘lgan yangi jamiyat qurish, bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega davlat barpo etishga yo‘naltirilgan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida xalk ta‘limi tizimidagi eng muhim vazifalardan biri ta‘lim sifati va mazmunini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. Bu vazifa samarali amalga oshirilsa, mamlakatimizni modernizatsiya borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim hal qiluvchi kuch hisoblangan ma‘naviy jihatdan barkamol, axloqan pok, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalanadi. Albatta, bu bejiz emas.

**Quyida boshlang‘ich ta‘limda intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda qo‘llanadigan bir qancha usullar haqida to‘xtalamiz: “Avtofokus” usuli.**

Sinfdagi zerikarli dars muhitining birinchi sabablaridan biri bu - o‘quvchilarning diqqati pastligi, darsga befarqligi va dangasaligidir. Bunday vaziyatda asosiy mas‘uliyat o‘qituvchining bo‘ynida bo‘ladi. Qanday qilib bo‘lsa ham o‘quvchilarni darsga e‘tiborini qarata olish kerak. Bugungi Avtofokus metodi orqali o‘quvchilarda ushbu muammolarni osonlikcha hal qila olasiz. Ushbu metod o‘quvchilarning ixtiyoriy darsga e‘tibor qaratishlarini ta‘minlaydi. Ushbu metodni qo‘llashda sizga **qizil va oq kartochkalar** kerak bo‘ladi. Sinfdagi o‘quvchilarning har biriga ushbu kartochkalarni tarqatib chiqasiz. Albatta, buni dars boshida amalga oshirasiz. So‘ngra dars mobaynida to‘satdan savol berib qolasiz, demak savollar quyidagicha: • "Qizil kartochkasi borlar o‘rnidan tursin" Va mavzu yuzasidan biror savolni turgan o‘quvchilardan istalgan biriga berasiz. Javob topa olishsa, qizil kartochka guruhiga bir bal qo‘shib qo‘yasiz. Keyin yana dars davomida to‘satdan **oq kartochkasi borlar o‘rnidan tursin** deysiz va yuqoridagi kabi, oq kartochkasi bor o‘quvchilardan istalganiga mavzu yuzasidan savol berasiz. Shu tartibda darsning so‘ngigacha bir necha marotaba ushbu usulni qo‘llaysiz. Natijada dars mobaynida barcha o‘quvchilar hushyorlikda bo‘lishadi. Bu usul o‘quvchilarni harakatga keltirish ya‘ni o‘rinlaridan turish jarayonida darsga bo‘lgan qiziqish signallarini orttiradi. Qolaversa, istalgan o‘quvchiga beriluvchi savollar barchani mavzuni diqqat bilan eshitishga majbur qiladi. Bu jarayonda bellashuv ham ketmoqda! O‘quvchilar o‘zaro bellashish orqali ixtiyoriy darsga diqqatlarini qaratishadi. Ya‘ni siz o‘quvchilarda Avtofokus muhitini yaratgan bo‘lasiz. Yuqoridagi usullarni albatta qo‘llab ko‘ring! Samarali o‘qituvchi bo‘lish juda qiyin, chunki har bir o‘quvchi o‘ziga xosdir, ammo o‘qitish strategiyasidan foydalangan holda o‘z sinfingizni o‘quvchilar uchun dinamik va motivatsion muhitga aylantirishingiz mumkin!



#### «Xazinalar sandig‘i» usuli.

Biz kelajak avlodga «Xazinalar sandig‘ini» qoldirmoqchimiz. Qani kim qanday xazina (bilim, maslahat va h.k.) qoldirmoqchi? Xazinalar sandig‘ini to‘ldira oldikmi? va h.k.

#### «Kimsasiz orolda» usuli.

Kimsasiz orolga tushib qoldik. Barcha fanlar bo‘yicha bilimlar asosida yangi hayot, davlat jamiyat qurmoqchimiz. Xo‘sh qani biologlar, ximiklar, fiziklar, maorifchilar, iqtisodchilar, siyosatchilarning rolini bilib olaylik va shu asosida davlat quraylik. Bu usul orqali biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasblarga, yuqori sinflarda o‘rgatiladigan fanlarga yo‘naltirgan bo‘lamiz.

#### “Bo‘sh stul” usuli.(15 minut)

Ishtirokchilar bir, ikkiga (juft) bo‘linadilar."Bir" raqamli ishtirokchilar doiraga o‘tiradilar, "ikki" raqamli ishtirokchilar esa ularning stullari orqasiga turadilar. Bitta stul bo‘sh qolishi kerak. Bo‘sh stul orqasida turgan ishtirokchining vazifasi - ko‘z qarashi bilan o‘tirganlarni o‘z stuliga taklif qiladi. Buni sezgan stulda o‘tirgan ishtirokchi, bo‘sh stulga chopib o‘tirib olishi kerak. Uning orqasida turgan sherigining vazifasi - uni ushlab qolishga harakat qiladi.

#### “Bilimlar shohsupasi” usuli.

Konvert ichidagi savolga guruhdan navbat bilan javob beradi.

Savol: Alisher Navoiy qachon va qayerda tug‘ilgan?

Savol: otasining ismi nima?

Savol: Shoir o‘zbek adabiy til rivojiga qanday hissa qo‘shdi?

Shu tarzda o‘quvchilar bilimlar shohsupasidan birin-ketin chiqib boradilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda O‘zbekistonning jahon miqyosida munosib o‘rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy yo‘nalishlarda g‘oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. –T.: TDPU, 2004.

2. “Umumta’lim fanlar metodikasi” jurnali 2016- yil ,1-son



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MANTIQUIY FIKRLASHGA  
O‘RGATUVCHI USULLAR**

**Yersultanova Asemgul Karibayevna  
Gulmanova Zauresh Seydaliyevna**  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada ta‘lim qozoq tilida olib boriladigan sinf o‘quvchilarini mantiqiy firklashga o‘rgatuvchi usullar yoritilgan bo‘lib, unda turli innovatsion texnologiyalar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, mantiqiy fikrlash, metod, ta‘rif, qulaylik amaradorlik...

Barchamizga ma‘lumki, ta‘lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma‘lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o‘quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo‘yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o‘qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra, ma‘lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo‘ladi. Ularning samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritilganda o‘qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo‘naltira oladigan, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta‘minlash o‘qituvchilarining oldiga qo‘yilayotgan maqsadga nechog‘lik erishilayotganini ko‘zda tutish kerak. Yoxud o‘qitish metodlari bevosita ta‘lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyasidir.

**Quyida ta‘lim rus tilida olib boriladigan sinf o‘quvchilarini mantiqiy firklashga o‘rgatuvchi usullarni tavsiya etamiz:**

**“So‘zli tasavvurlar” usuli.**

**Ta‘rifi:** O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling.

O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq. Biron-ta so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat **“bir lahzalik surat”** hosil bo‘ladi. Mavzu o‘rganib bo‘lingandan so‘ng har bir o‘quvchidan ular ushbu mavzu bo‘yicha nima deb o‘ylashi yoki his qilishini bir so‘z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zni misol keltirishni so‘rang. Sinf aylanib, bunday so‘zlarni yig‘ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o‘quvchilardan ushbu so‘zlarning ro‘yxatini tuzishni iltimos qiling.

**Foydalanish doiralari:** Ushbu usul mavzuni o‘rganish jarayonining boshida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o‘quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

**Afzalliklari:** Bunday usul o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy rivojini ko‘rishga, sizga esa – siz berayotgan ta‘lim sifatini baholashga yordam beradi.

**Qiyinchiliklari:** Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat‘iyan amal qilish lozim. Jarayonning cho‘zilishi mashq mohiyatini o‘zgartirishi mumkin.

**“Maqsad sari bir qadam” usuli.**

**Ta‘rifi:** Mashq qo‘yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirish mumkin va lozim bo‘lgan harakatlarni aniqlashtirishga qaratilgan. Ishtirokchilardan gorizontaal chiziq chizish va unda teng masofada 11ta nuqta qo‘yish va ularni Odan 10gacha bo‘lgan raqamlar bilan belgilab chiqish iltimos qilinadi. Bu chiziq maqsadga erishish yo‘lini ifodalaydi. Chap tomondagi nuqta (0) maqsadga umuman erishilmaganligini aks ettiradi, o‘ng tomondagi chiziq esa (10) maqsadga butunlay va eng muvaffaqiyatli ravishda erishilganligi vaziyatidan darak beradi. Ishtirokchilardan ushbu har bir ikki nuqtaning oldida eng yomon va eng yaxshi vaziyatni ta‘riflaydigan bir necha so‘zlarni yozish iltimos qilinadi.

Shundan so‘ng ishtirokchilardan hosil bo‘lgan shkala yordamida o‘zlarining ishdagi ahvollarini – ular maqsadga qanchalik yaqinlashib qolganlarini baholash iltimos qilinadi. Ishtirokchilar tegishli raqamni belgilaydilar va uning yonida ishlarning joriy ahvolini ifodalaydigan bir necha



so‘zlarni yozadilar. Keyin esa ulardan ularning hozirgi vaziyatini aks ettiradigan nuqtadan navbatdagi nuqtagacha strelka chizish iltimos qilinadi. «Bu maqsadingizga erishish uchun eng qisqa yo‘l. Hozircha bu maqsadga to‘liq erishib bo‘lmasa-da, biroq hech bo‘lmasa bu qadamni amalga oshirish mumkin va kerak. Bu qadamni amalga oshirish uchun siz qanday aniq harakatlarni qilishingiz mumkin va aynan qachon siz buni bajarishingizni o‘ylab ko‘ring va yozib oling».

**Foydalanish doiralari:** Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda, savollarni ma’lum o‘quv mavzusi va turli yoshdagi o‘quvchilar guruhiga moslashtirishda.

**Afzalliklari:** Ushbu mashq masalalarni aniqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish va unga erishish yo‘lidagi qadamlarni tushunishga hamda mulohazalar yuritishdan aniq harakatlarga o‘tishga imkon beradi. Ko‘pincha odam istayotgan maqsadiga kerakli xususiyatlar va sharoitlarga ega bo‘lmaganligi uchun emas, balki maqsad uning uchun juda yirik bo‘lib ko‘ringanligi va odam unga erishish jarayonini hozirning o‘zidayoq qilish mumkin va lozim bo‘lgan aniq harakatlarga, bosqichlarga ajrata olmasligi uchun erisholmaydi. Mashq ushbu cheklovni hech bo‘lmasa qisman bartaraf etishga imkon beradi.

**Qiyinchiliklari:** Mashqni bajarish uchun kerak bo‘lgan vaqtni hisoblab chiqish.

“Rasmi test” usuli. Bunda o‘quvchilarga rasmlardan iborat testlar ko‘rsatilib, ularni mantiqiy fikrlashi sinaladi.

**Qaysi qushni biz tinchlik qushi deb e’tirof etamiz?**

A) Qaldirg‘och B) Humo C) Bulbul D) Kabutar



Xullas, mantiqiy fikrlash, shuningdek, o‘quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma’lumot to‘plash va o‘quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko‘nikmalarni baholab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o‘quvchi yoshlarning fikr va munosabatlari, taklif va yechimlarini baholaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zRFA “Fan”. 2006-y
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova.
3. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



## ЧЕТЫРЕ ПАРАМЕТРА КОММУНИКАЦИИ

**М.Ф.Булычёва,**

доцент кафедры «Изучение языков»  
Университета общественной безопасности  
Республики Узбекистан

**Аннотация:** в статье рассмотрены четыре параметра, влияющих на используемый тип речи.

**Ключевые слова:** коммуникация, вербальный, невербальный, общение, информация, параметры, речь, структура, высказывание.

